



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI





SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2023-yilning yanvar-oktabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 26 055,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* 105,5 % ni tashkil etdi.

yanvar-oktabr
mlrd. so'm



yanvar-oktabr
FHI, %






■ mlrd. so'm ■ FHI %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (20 881,2 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (13 633,5 ming so'm) nisbatan yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2023-yil yanvar-oktabr oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 25 079,8 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,3 % ni tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (46,3 %), Jomboy tumani (9,8 %), Urgut (7,4 %), hamda Samarqand tumani (6,5 %), tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Bulung'ur tumanida (110,6 %), Qo'shrabot tumanida (109,1 %) hamda Oqdaryo tumanida (108,1 %) kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2023-yil yanvar-oktabr oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, Ishlab chiqarish 6,4 % ga hamda Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilishda 32,0 % ga, Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 10,6 % ga oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek, Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning 37,5 % ga pasayish kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 291,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2023-yilning yanvar-oktabr oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 15,5 % (14,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 19,9 % (19,9 %) va quyi texnologiyalisi 59,6 % (61,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,7 % (2022-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi 11,2 % (2022-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 22,2 % (2022-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 39,3 % (2022-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-oktabr	2023-yil yanvar-oktabr	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	138,5	43,1	- 95,4
Paxta tolasi, ming t.	42,9	47,6	4,7
Tozalangan paxta yog'i ming tonna	13,1	20,1	7,1
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	251,0	430,2	179,2
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g. (buxanka), tonna	506,8	579,7	72,9
Uzum vinosi - ming litr	28,3	14,4	-13,9
Aroq – ming litr 100 % spirt	94,1	28,2	- 65,9

2023-yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 579,7 tonna (2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 14,4 % ga ko'paygan), 43,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (68,9 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-oktabr oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-oktabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 2 518 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 22,6 % ga kamaygan.



2023-yil

2 518 dona

2023-yil

77,4 %

2022-yil

3 253 dona

2022-yil

93,0 %

2021-yil

3 498 dona

2021-yil

98,5 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-oktabr oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-oktabr oylarida 695 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,4 % ga kamaygan.



2023-yil

695 dona

2023-yil

71,6 %

2022-yil

971 dona

2022-yil

125,6 %

2021-yil


773 dona

2021-yil

136,6 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 11,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 143,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 11,1 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 102,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 799,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 90,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,7 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 91,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 933,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 105,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,1 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 113,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 7 293,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 148,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 351,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 17,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 89,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,5 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 111,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4 646,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 113,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 101,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 678,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 73,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 138,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 306,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 108,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 %, fizik hajm indeksi 191,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 325,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 145,3 % .

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 124,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 673,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 132,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 121,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 629,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 117,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi 119,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 707,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,8 %, fizik hajm indeksi 81,8 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 2 699,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 491,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 62,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-oktabr	2023-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	426 308,7	189 096,2	- 237 212,5
Issqlik energiyasi, ming gkal	4 614 519,0	3 772 245,6	- 842 273,4


(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*)



Elektroenergiya



Issqlik energiyasi



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 192,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-oktabr	2023-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	31 815,2	42 772,3	10 957,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	85,4	96,1	10,7
Plastmassa chiqindilari, tonna	802,8	2 369,0	1 434,9

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*)



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 32,3 % shuningdek, Toyloq 14,5 %, Urgut 11,7 % ni hamda Samarqand tumanlarida 10,5 % ni tashkil etdi



■ mlrd. so'm ■ o'sish sur'ati, %


yanvar-oktabr

mlrd. so'm



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi


yanvar-oktabr o'sish sur'ati





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 076,6 ming so'm bo'lgan holda, Samarqand shahrida 4 827,6 ming so'mni, Toyloq tumanida 5 722,8 ming so'mni, Jomboy tumanida 4 077,4 ming so'mni va Samarqand tumanida 3 347,8 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-oktabr
ming so'm



yanvar-oktabr
o'sish sur'ati



■ ming so'm ■ o'sish sur'ati, %

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 622,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 33,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



51,3 %

2023-yil
yanvar-oktabr



36,7 %

2022-yil
yanvar-oktabr



2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 4 420,9 milliard so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,8 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o'tacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Oqdaryo tumani (121,0 %), Jomboy tumani (120,4 %), Samarqand tuman (112,8 %) hamda Ishtixon tumani (106,7 %) korxonlari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



48,7 %

2023-yil
yanvar-oktabr



63,3 %

2022-yil
yanvar-oktabr



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 51,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 48,7 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 36,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 63,3 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 106,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 98,5 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 38,5 % ni, shuningdek, tumanlardan Toyloq 14,3 %, Urgut 13,7 %, hamda Samarqand tumani 8,7 % ni tashkil etdi.




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 26,5 % ni, shuningdek, Toyloq tumani 14,6 % ni, Jomboy tumani esa 13,7 % ni tashkil etdi.

yanvar-oktabr
mlrd. so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-oktabr
o'sish sur'ati



■ mlrd. so'm - o'sish sur'ati, %

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-noyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 293 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 224 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,5 %) Samarqand shahriga, 851 tasi (13,5 %) Urgut tumaniga, 618 tasi (9,8 %) Samarqand tumaniga, 498 tasi (7,9 %) Pastdarg'om tumaniga va 371 tasi (5,9 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

1 095 ta

2023-yil yanvar-oktabr

1 450 ta

2022-yil yanvar-oktabr

1 698 ta

2021-yil yanvar-oktabr



Jami faoliyat yuritayotgan

6 293 ta


2023-yil 1-noyabr holatiga

8 680 ta

2022-yil 1-noyabr holatiga

8 190 ta

2021-yil 1-noyabr holatiga




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11 518,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,2 % ni tashkil etdi.



yanvar-oktabr

mlrd.soʻm



yanvar-oktabr

ulushi %



■ mlrd. soʻm — oʻsish surʼati, %